

EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH – HAVO SIFATINI YAXSHILASHNING MUHIM OMILI

Ro'ziqulov Ilyos Mo'minovich

O'zbekiston Respublikasi

Milliy Gvardiya ixtisoslashtirilgan

o'quv markazi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik madaniyatni shakllantirishning jamiyat hayotidagi ahamiyati hamda uning havo sifatini yaxshilashdagi o'rnini tahlil qilinadi. Atrof-muhit muhofazasi, xususan, atmosfera havosining ifloslanishiga qarshi kurashishda inson omilining hal qiluvchi roli yoritilgan. Tadqiqotda ekologik ong va madaniyatni oshirish orqali aholining ekologik mas'uliyatini kuchaytirish, ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish hamda yashil turmush tarzini keng joriy etish zarurligi ilmiy asoslab berilgan. Maqolada O'zbekiston sharoitida ekologik siyosatning amaliy natijalari, havoni tozalashga qaratilgan tashabbuslar va ekologik madaniyatni rivojlantirishning samarali yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, havo sifatini yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va sog'lom turmush muhitini yaratish bevosita aholining ekologik madaniyat darajasi bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, havo ifloslanishi, ekologik ong, yashil turmush tarzi, ekologik ta'lim, atmosfera, ekologik xavfsizlik.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается значение формирования экологической культуры в обществе и её роль в улучшении качества атмосферного воздуха. Особое внимание уделено человеческому фактору как решающему звену в системе охраны окружающей среды и борьбы с загрязнением воздуха. Автор анализирует важность экологического воспитания и просвещения, повышение экологического сознания населения, а также внедрение принципов «зелёного образа жизни». В работе раскрыты современные подходы к развитию экологической культуры в Узбекистане, приведены примеры государственных инициатив и образовательных программ, направленных на формирование ответственного отношения к природе. Результаты исследования показывают, что уровень экологической культуры общества напрямую влияет на состояние окружающей среды и качество воздуха, а также способствует обеспечению экологической безопасности и устойчивого развития.

Ключевые слова: экологическая культура, загрязнение воздуха, экологическое сознание, зелёный образ жизни, экологическое образование, окружающая среда, экологическая безопасность.

ANNOTATION: This article explores the significance of developing ecological culture in society and its crucial role in improving air quality. Special attention is given to the human factor as a decisive element in protecting the environment and combating air pollution. The study emphasizes the importance of environmental education and awareness, the formation of ecological responsibility among citizens, and the promotion of a “green lifestyle.” The author analyzes the current state of ecological policy in Uzbekistan, highlighting national programs and initiatives aimed at fostering responsible attitudes toward nature. The research results show that the level of ecological culture in society directly affects the state of the environment and air quality, contributing to ecological safety and sustainable development.

Keywords: ecological culture, air pollution, environmental awareness, green lifestyle, ecological education, environment, ecological safety.

Kirish.

Bugungi kunda atrof-muhitni sog'lomlashtirish, aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, biologik xilma-xillikni asrash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish dolzarb muammolar hisoblanadi va ularni ijobiy hal qilish insoniyatning kelgusi taraqqiyotini belgilaydi. Yoshlarda yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'risidagi bilimlar, tabiat va insonlarni o'zaro uzviy bog'liqligi haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, ekologik tizimlar, ularning paydo bo'lishi, evolyutsion rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, milliy, mintaqaviy va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, atrof-muhitni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish ularni tanlagan kasblariga qarab ekologik ta'lim va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish ekologik qonunchilik bazasini har tomonlama tahlil qilish va uni amaliyot bilan bog'lash mexanizmini yaratish, milliy ekologik ta'limning majburiylik prinsipini amalda qo'llash, ekologik ta'limni barqaror rivojlanish qoidalariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish kabi masalalarni hal etishga undaydi. Hozirgi vaqtda ekologiya asosiy vazifasi tiriklikning yashashiga yordam berishdir, chunki antropogen omillarning tabiatga salbiy ta'sir qilishi kuchayib bormoqda, natijada jamiyat va tabiat orasidagi muvozanat buzilib, atrof-muhitga salbiy ta'sir kuchaymoqda. Havo, suv, tuproq turli chiqindilar bilan ifloslanmoqda, ekotizimlar buzilishi natijasida ekologik inqirozlar kelib chiqmoqda. Hozirgi ekologik ta'lim orqali vujudga kelayotgan ekologik madaniyat – turmushning barcha yo'nalishlarida, ma'naviyatga va ekologik siyosatga amal qilishdir. Ekologik madaniyat doim o'zgarib va rivojlanib turuvchi insoniyatning tabiatga odamiylik bilan javob berishidir. Yuksak ekologik madaniyatli inson biosferada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish orqali munosabatda bo'lishdir. Ekologik madaniyat – bu insoniyat

tomonidan tabiat va jamiyat birligini va taqdirini tushunishdir. Tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishning yo'llaridan biri yuqori samara beradigan tabiiy resurslar bilan bir qatorda, kam, samaralilaridan ham foydalanishdir. Yer osti boyliklaridan asosiy elementlar bilan birga uchraydigan boshqa ma'danlarni ham ajratib olib, ma'dansiz chiqindilarni xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ishlatish, ya'ni chiqindisiz texnologiyaga erishish, dehqonchilikda unumsiz, notekis, botqoq, sho'rxok va toshloq yerlarni xo'jalik ehtiyojlari uchun yaroqli holga keltirish bunga misol bo'la oladi. Jamiyatning ekologik madaniyati uning tabiatga nisbatan aqlli munosabati ko'rsatkichi yoki indikatoridir¹.

Asosiy qism.

Bugungi kunda havo ifloslanishi insoniyat salomatligi va ekologik xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan global muammolardan biridir. Sanoatning rivojlanishi, transport vositalarining ko'payishi, energiya manbalarining asosan uglevodorod yoqilg'ilariga tayanishi natijasida atmosfera tarkibidagi zararli gazlar miqdori ortib bormoqda. Natijada, nafaqat tabiiy muvozanat buzilmoqda, balki inson organizmi uchun xavfli bo'lgan kasalliklarning tarqalish xavfi ham kuchaymoqda. Shunday sharoitda havo sifatini yaxshilash masalasi faqat texnologik yoki texnik chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, aholining ekologik madaniyatini oshirish orqali yechim topishi lozim.

Ekologik madaniyat bu tabiatga imkoni boricha zarar keltirmaslik, tabiat va jamiyat taqdiri birligini tushunishdir. Yoshlarda tabiatdan uning boyliklariga zarar yetkazmazzmagan holatda foydalanish kerakligini o'rgatish ekologik ta'lim tarbiyaning asosi hisoblanadi. Bunday maqsadlarga erishda Oliy o'quv yurtlarida turli kasb egalari uchun alohida dasturlar, metodik qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, ularda har bir mutaxassislik bo'yicha tabiatga salbiy ta'siri, atrof – muhit muhofazasi muammolari o'z aksini topgan bo'lishi zarur. Yoshlarda ekologik ta'lim tarbiya masalariga chuqur yondoshishda maxsus ekologik ta'lim tarbiya dasturi va metodik qo'llanmalar asosida amalga oshiriladi. So'nggi yillarda global miqyosda ekologik muammolar, xususan, atmosfera havosining ifloslanishi insoniyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Aholi sonining ortishi, sanoat korxonalarining ko'payishi, transport vositalaridan chiqayotgan zararli gazlar miqdorining oshishi natijasida havo sifati yildan-yilga yomonlashmoqda. Bu jarayon nafaqat ekologik muvozanatga, balki inson salomatligi va turmush sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, havoni tozalash texnologiyalaridan tashqari, aholining ekologik madaniyatini shakllantirish masalasi muhim strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik madaniyatni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan

¹ YOSH AVLODGA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTISH VA UNING ISTIQBOLLARI Shamsidinova Gulchehra Do'smurodovna. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 422-424-b

ilgari surilgan “Yashil makon” umumxalq loyihasi, “Ekologik ta’lim konsepsiyasi” hamda atmosfera havosini muhofaza qilishga qaratilgan davlat dasturlari bu boradagi amaliy chora-tadbirlarning yorqin ifodasidir.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekologik mavzularda ko‘rsatuvlar, maqolalar, ijtimoiy roliklar tayyorlash orqali aholining ekologik ongini oshirish mumkin. Chunki ekologik madaniyatni shakllantirish faqat ta’lim muassasalarining emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasidir. Har bir fuqaro o‘z xatti-harakati bilan tabiatni asrashga hissa qo‘shmog‘i kerak. Misol uchun, jamoat transportidan foydalanish, energiya tejankor texnologiyalarni qo‘llash, daraxt ekish, chiqindilarni saralash kabi oddiy amaliy harakatlar havoni toza saqlashda katta ahamiyatga ega. Ekologik madaniyatning rivojlanishi nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki sog‘lom jamiyat, barqaror iqtisodiyot va qulay yashash muhitini yaratish uchun asos bo‘ladi. Shunday ekan, har bir shaxsda ekologik ongni shakllantirish, yosh avlodni tabiatni sevis va asrash ruhida tarbiyalash, davlat siyosatida ekologik masalalarga ustuvor e’tibor qaratish — havo sifatini yaxshilashning eng muhim omillaridan biridir.

Xulosa.

Yuqoridagi fikr va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, havo sifatini yaxshilash jarayoni nafaqat texnik vositalar yoki ekologik nazorat tizimlariga bog‘liq, balki eng avvalo inson omiliga, ya’ni aholining ekologik madaniyat darajasiga chambarchas bog‘liqdir. Ekologik madaniyat insonda tabiatga mehr, mas’uliyat va ongli munosabatni shakllantiradi. Jamiyatda ekologik ongni yuksaltirish, ekologik ta’limni rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarida ekologik masalalarni keng yoritish orqali aholining e’tiborini havo sifatini saqlashga qaratish mumkin. Shuningdek, ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, “yashil makon” loyihalari va ekologik targ‘ibot ishlarini keng yo‘lga qo‘yish orqali fuqarolarning ekologik faoliyatini kuchaytirish lozim.

Shaxsiy nuqtai nazardan aytganda, har bir inson o‘z hayot tarzini qayta ko‘rib chiqib, atrof-muhitni asrashga hissa qo‘shishi kerak. Oddiygina daraxt ekish, chiqindilarni saralash yoki ortiqcha energiya sarfini kamaytirish kabi kichik amallar katta natijalar berishi mumkin. Chunki havo sifati — bu bizning sog‘ligimiz, kelajagimiz va farzandlarimiz uchun toza muhit demakdir. Shunday ekan, ekologik madaniyatni shakllantirish – bu har bir fuqaroning burchi, jamiyatning vazifasi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. Faqatgina ekologik ongli jamiyatgina toza havo, sog‘lom muhit va barqaror rivojlanishni ta’minlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of "Education for sustainable ecological development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 144-149.

2. Sayfullayev, A. F. O. (2023). SHaharlarni ko'kalamzorlashtirishda katalpa daraxtining ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 77-82.
3. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R. va Baratov, U. D. (2021). O'zbekiston deklaratsiyasi asosida "Barqaror ekologik rivojlanish uchun ta'lim"ni rivojlantirish istiqbollari. *Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqotlar jurnali (AJMR)* , 10 (3), 144-149.
4. Shamsidinova, G. D., Tilakova, S. va Ahatova, M. I. (2023). O'zbekiston respublikasida 2030-yil barqaror rivojlanish dasturi maqsadlarini amalga olishda ekologik muammoni tahlili. *epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)* , 9 (4), 95-97
5. Shamsidinova, G. D., Tilakova, S. va Ahatova, M. I. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha UNEP DASTURI MAQSADLARI. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)* , 8 (4), 100-104
6. Turdaliev, A. T., Darmonov, D. Y., Teshaboyev, N. I., Saminov, A. A., & Abdurakhmonova, M. A. (2022, July). Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1068, No. 1, p. 012047). IOP Publishing.